

YUQUMLI KASALLIKLAR PATOLOGIYASI RIVOJLANISHI, OLDINI OLISH CHORA TADBIRLARI

*Respublika o'рта tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va
ixtisoslashtirish markazi Termiz filial direktori vrach pediator*

Zokir Amanovich Safarov

*Respublika o'рта tibbiyot va farmatsevt xodimlar malakasini oshirish va
ixtisoslashtirish markazi Termiz filial o'qituvchisi farmasevt*

ZayniddinovMuhiddinSalohiddinovich

Аннотация:*Патогенез инфекционных болезней, микробы, пути передачи, меры профилактики.*

Ключевые слова:*Инфекционные болезни, вакцинация, эпидемия, развитие болезни.*

Anotatsiya: *Yuqumli kasallik patogenezi, mikroblar, yuqish yo'llari, oldini olish chora tadbirlari.*

Kalit so'z:*Yuqumli kasalliklar, vaksinatsiya, epidemiya, kasallik rivojlanishi.*

KIRISH

Yuqumli kasalliklar — patogen mikroorganizmlarning inson organizmiga kirib ko'payib, zararli ta'sir ko'rsatishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklardir. Yukumli kasallik har qanday odam organizmiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Patogen mikroorganizmga karshi kurashish uchun insonning immunitet tizimi yuqoriligi katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda Milliy taqvim asosida 13 turdagi yuqumli kasalliklarga qarshi emlash ishlari o'tkaziladi.

Emlash bu — ma'lum bir kasallikka qarshi immunitetni oshiradigan biologik preparat. Vaksina zaiflashgan yoki kasallik chaqiradigan mikroorganizmlardan tayyorlanadi. Agent tananing immun tizimini uni begona sifatida aniqlashga, yo'q qilishga va “eslab kolishga” undaydi, bu esa immunitet tizimiga kelajakda duch keladigan har qanday mikroblarni osonroq aniqlash va yo'q kilish imkonini beradi. Vaksinaning o'zi kasallik keltirib chikarishga qodir bo'lmasa ham, tananing immunitet tizimi unga virus bordek munosabatda bo'ladi. Xalqaro tajribadan ma'lum bo'ldiki, emlashlarning keng qo'llanilgani sababli, polimiyelit, qizamiq, difteriya, ko'k yo'tal, parotit, qoqshol va meningitning ba'zi turlari kabi keng tarqalgan kasalliklar hozirda kamdan-kam uchraydi. Emlangan odamlarda kasallik qo'zg'atuvchi virus yoki bakteriyalarni zararsizlantiradigan antitanachalar paydo bo'ladi. Ularning kasallikka chalinishi hamda mikroblarni tarqatish ehtimoli juda kam bo'ladi. Yuqumli kasalliklarning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ular Quyidagilardan iborat:

1. Barcha yuqumli kasalliklar bemor yoki bakteriya tashuvchilardan atrofdagi sog'lom kishilarga yuqishi mumkn. Kasallikning atrofdagilarga yuqish ehtimoli kasallik turiga va kechish davriga bog'liq.

2. Yuqumli kasalliklarda o'ziga xoslik mavjud har bir kasallik ma'lum turdagi patogen mikroblar tomonidan quzg'otiladi. Masalan, difteriya (bo'g'ma) ni difteriya tayoqchasi, qizamiqni - qizamiq virusi, vaboni - vabo vibrioni qo'zg'atadi hech qachon vabo vibrioni difteriyani qo'zg'atmaydi, yoki aksincha ham bo'lmaydi).

3. Yuqumli kasalliklar kechishida ma'lum davriylik kuzatiladi. Patogen mikroblar odam organizmiga tushganidan so'ng ma'lum muddatgacha kasallik alomatlari ko'rinmaydi. Uni yuqumli kasallikning yashirin (inkubatsion) davri deb ataladi. Bu davr muddati turli kasalliklarda turlicha bo'ladi. Masalan, grippda bir necha soatdan 2 kungacha, ich terlamada 2-3 hafta va hokazo. Keyingi davr kasallik alomatlari namoyon bo'lgan davr hisoblanadi. Unda kasallikning umumiy alomatlari ham, har bir xastalikning o'ziga xos bo'lgan klinik alomatlari ham yuzaga chiqadi. Bu belgilar dastlab paydo bo'ladi (prodromal davr), rivojlanib avjiga yetadi va ma'lum muddatdan so'ng borib, yo'qoladi. Kasallik alomatlari kamaya boshlagandan bemor o'zini durustroq his qila boshlaydi. Bu tuzalish (rekonvalessensiya) davri boshlanganidan darak beradi. U ko'pincha sog'ayish davri bilan tugallaydi. Ayrim hollarda, bu davrda kasallik zo'rayishi mumkin.

Yuqumli kasalliklarda "to'la sog'ayish" deganda faqat kasallik alomatlarining to'la tugashi emas balki bakteriologik sog'ayish ham nazarda tutiladi. Chunki bemor kasalliklar to'la forig' bo'lganida, uning organizmidan patogik mikroblar ajralishi ham to'xtash kerak. Bemor tuzilganidan so'ng qilinadigan tahlilda (surtma yoki ekmalarda) patogen mikroblar 2-3 karralarga tekshirilganda topilmasligi bakteriologik sog'ayishidan darak beradi. Bazi kasalliklarda, masalan ich terlama yoki paratiflarda, bemor tuzalib ketganidan so'ng ham, uning tanasidan patogen mikroblar ajralib turadi. U kasallikdan so'nggi bakteriya tashuvchilik holati deb ataladi. Bu holat 3 oygacha davom etsa, o'tkir bakteriya tashuvchilik, 3 oydan ortiq cho'zilsa surunkali bakteriya tashuvchilik hisoblanadi.

4. Yuqumli kasalliklardan so'ng bemor organizmida aynan shu kasallik mikroblariga nisbatan turg'unlik immunitet paydo bo'ladi. U ortirilgan immunitet bo'lib, himoya qobiliyati turli muddatgacha saqlanib qoladi. Masalan, grippdan so'nggi immunitet kuchi aynan shu turdagi virusga nisbatan 3 yilgacha yetadi. Qizamiq va ich terlamadan so'ng paydo bo'ladigan immunitet butun umrga yetadi va odam bu kasalliklar bilan qaytadan og'rimaydi. Keyingi yillarda ilmiy tekshirishlar natijasida, yuqumli kasalliklardan so'ng shakllanadigan immunitet ko'p jihatdan bemor organizmning genetik na fenotipik xususiyatlariga bog'liq ekanligi isbotlandi.

5. Emlash yo'li bilan keng tarqalgan yuqumli kasalliklarning oldini olish mumkin. Bolalarni bir necha yuqumli kasalliklarga qarshi emlashdan maqsad, ularni oldini olishdir. Difteriya, ko'kyo'tal, qizamiq, poliomiylit (shol) ga qarshi emlashlar shular jumlasidandir.

Kasallik qo'zg'atish xususiyatlariga ega mikroblar patogen mikroblar deb ataladi. Ular inson tanasiga tushganida ko'pincha kasallik qo'zg'atadi. Kasallikning qanday og'irlikda kechishi mikroblar virulentligiga ko'p jihatdan bog'liq. Demak, virulentlik mikroblar patogenlik darajasini ko'rsatuvchi o'lchov. Odatda, o'ta virulentli xususiyatga ega bo'lgan mikroblar odamda og'ir kechadigan kasallik qo'zg'atadi. Virulentligi pastroq mikroblar yuqqanida

kasallik yengilroq o'tadi. Umuman olganda, kasallik alomatlarining qay darajada namoyon bo'lishiga qarab, yuqumli kasallikning yengil, o'rta va og'ir kechadigan turlari farqlanadi. Yuqumli kasalliklar o'ta og'ir kechgan hollarda ba'zan o'lim bilan tugaydi.

Har qanday patogen mikroob tarkibida zaharli modda toksiv bor. Toksin mikroobning xayot faoliyati oqibatida hosil bo'lib, atrof-muhitga tarqalsa, ekzotoksin deb ataladi. Grammusbat mikroblar asosan ekzotoksin xosil qiladi. Masalan, difteriya tayoqchasi, botuliem mikrobi. Ekzotoksin tarkibiga ko'ra oqsil modda bo'lib, ferment xususiyatiga ega. Uning ta'sirida moddalar almashinuvi buzilishi oqibatida odamning xayotiy zarur sistemalari zararlashdi.

Mikrob tanasi parchalanishi oqibatida atrof-muxitga tarqaladigan toksinlarga endotoksin deyiladi. U tabiatan polisaxarid birikmalarga kiradi va asosan grammanfiy mikroblar ishlab chiqiladi. Masalan, vabo kasalligi vibrioni, ich terlama mikrobidan kuchli endotoksin mavjud.

Patogen mikroobning odam tanasiga tushish yo'llari bir xil zmas. Har bir kasallikda mikroobning o'ziga xos tanaga kirish yo'li bor. Tanannng mikroob kirib, tarqaladigan joyi infeksiyaning kirish darvozasi deb ataladi. Gripp, qizamiq, suvchechak, ko'kyo'tal kabi kasalliklarda infeksiyaning darvozasi yuqori nafas yo'llari hisoblanadi. Ichak infeksiyalari: tif-paratiflar, ichburug' va vabo kasalliklari mikrobi og'iz orqali tushganida xastalik rivojlanadi. Ba'zi yuqumli kasalliklarda infeksiyaning kirish darvozasi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, kuydargi va qon mikroblari odam tanasiga teri, nafas yo'llari va og'iz orqali tushadi. Kasallik mikroobning odam tanasiga qaysi yo'l bilan tushishiga ko'ra har bir yuqumli kasallikda u yoki bu a'zolar asosan jarohatlanadi. Jumladan, asosan nafas yo'llari orqali yuqadigan kasalliklarda asosan nafas olish sistemasi, og'iz orqali yuqadigan xastaliklarda - ovqat hazm qilish sistemasi jarohatlanadi.

Yuqumli kasallikning ayrim davrlarida tanaga tushgan mikroob qonga ham o'tishi mumkin. Bunday holat bakteriyemiya deyiladi. Ba'zi kasalliklarda bemor vena tomiridan qon olib mikroblarni ahtarish, yani tashxisot (diagnostika) da foydalanish shunga asoslangan. Masalan, tif-paratif kasalliklarida bakteriyemiya ro'y beradi. Shuning uchun tashxis qo'yish maqsadida, boshqa tekshirishlar qatori, bilakdan qon olib, safroda suyuqlikka ekiladi. Keyinchalik unda kasallik mikrobinini topish mumkin.

Butun dunyoda va shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham kompleks profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarning maqsadli amalga oshirilishi natijasida yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishda katta yutuqlarga erishildi.

Bola tug'ilishi bilan tug'ruq komplekslarida chaqaloqning yuqumli kasalliklarga qarshi emlanishi nazoratga olinadi. Chaqaloq tug'ilishining birinchi kunida virusli gepatit "V" kasalligiga qarshi vaktsinasi, 2-5 kunida sil kasalligiga qarshi BSJ vaktsinasi bilan emlash olib boriladi. Shu tariqa tibbiyot xodimlari tomonidan bola Milliy kalendar asosida to'liq emlanishi ta'minlanadi.

COVID-19ga qarshi kurashishda, mamlakatimizda epidemik holatini barqarorlashtirishda COVID-19 ga qarshi vaktsinalarning o'рни alohida ahamiyat kasb etdi.

Hozirgi kunga kelib bu kasallikning qayd kilinishi keskin kamaygan. Bu natijaga erishishda COVID-19 ga qarshi vaksina hamda buster doza bilan emlash ishlarining ahamiyati katta.

Hulosa: Muxtasar aytganda, emlash nafaqat yuqumli kasalliklar bilan kasallanish ehtimolini pasaytiradi, balki aholi o'rtasida epidemiya, pandemiyani oldini olib, inson umrini uzaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. K. Shodiyev, S. R. Ahmedov teri va jinsiy a'zolar kasalliklari
2. LA. Majidov V. M., Yuqumli kasalliklar, T., 1996; Shovahobov Sh. Sh., Yuqumli kasalliklar va epidemiologiya asoslari, T., 1997.
6. Исраилова, М. Н. (2016). Новые педтехнологии изучения латинского языка в медицинских вузах. *Психология и педагогика: методика и проблемы практического применения*, (53), 66-71.
7. Исраилова, М. Н. (2017). Формирование принципов устойчивого развития в обучении иностранным языкам. *Международные научные исследования*, (1), 161-163.
8. Исраилова, М. Н. (2022, March). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ. In *Конференция состоялась* (Vol. 5, p. 414).
9. Israilova, M. N. (2017). New Pedagogical Technologies of Studying Latin in Medical Schools. *Eastern European Scientific Journal*, (1).
10. Israilova, M. N., & Yuldasheva, D. Y. (2021). PECULIARITIES OF TEACHING LATIN LANGUAGE AT MEDICAL UNIVERSITIES. *Eastern European Scientific Journal*, (2).
11. Исраилова, М. Н. (2021, November). ТЕХНОЛОГИЯ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. In *International journal of conference series on education and social sciences (Online)* (Vol. 1, No. 2).
12. Исраилова, М. Н., Юлдашева, Д. Ю., & Сайфуллаева, Л. С. (2021). Педагогические технологии на занятиях по латинскому языку в медицинском вузе. *Вестник науки и образования*, (16-2 (119)), 47-49.
13. Исраилова, М. Н. (2019). Принципы преподавания латинского языка в медицинском вузе. *Academy*, (12 (51)), 58-60.
14. Исраилова, М. Н. (2022, August). К ВОПРОСУ О СОВРЕМЕННОМ СОСТОЯНИИ ЛАТЫНИ: Исраилова Махсуда Нигматуллаевна, Доцент кафедры Латинского языка ТГСИ. In *Научно-практическая конференция*.
15. Исраилова, М. Н., & Сайфуллаева, Л. С. (2022, August). ТИББИЁТ ТАЪЛИМ МУАССАСИДА ЛОТИН ТИЛИНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА

ИНТЕЛЛЕКТУАЛ-МАДАНИЙ РИВОЖЛАНИШ: Исраилова МН доцент PhD, Сайфуллаева ЛС ассистент Тошкент давлат стоматология институти Sayfullayevalola1@ gmail. com. In *Научно-практическая конференция*.

16. Исраилова, М. Н. (2022, August). ЭФФЕКТИВНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ИЗУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ МОДЕЛИРОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНО-КУЛЬТУРНОГО РАЗВИТИЯ: Исраилова МН, доц. PhD Ташкентский Государственный Стоматологический Институт oydinboymatova80@ gmail. com. In *Научно-практическая конференция*.

17. Исраилова, М. Н. (2018). ИННОВАЦИИ В МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ ПОСРЕДСТВОМ ВНЕДРЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF THE PROBLEMS AND PROSPECTS OF MODERN SCIENCE AND EDUCATION* (pp. 68-69).

18. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Юлдашева, Д. Ю. (2022). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ НА ЗАНЯТИЯХ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА ДЛЯ РАЗВИТИЯ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У СТУДЕНТОВ. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 422-425.

19. Исраилова, М. Н., Абидова, М. И., & Сайфуллаева, Л. С. (2022). ВНЕДРЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕТОДОВ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ЛАТИНСКОГО ЯЗЫКА. *Экономика и социум*, (11-2 (102)), 426-429.

20. Исмоилова, М. Н., & Кобиров, К. Х. ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ. *ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ Учредители: Олимп*, 60-62.

21. Исраилова, М., Сайфуллаева, Л., & Дулдулова, Н. (2023). Lotin tilini o 'qitish jarayonida axborot texnologiyalarining o 'rni. *Общество и инновации*, 4(2), 148-151.

22. Nig'matillayevna, I. M. (2022). BENEFITS OF USING VIDEO IN ELT. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 6, 7-12.

23. Nigmatullaevna, I. M. THE USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE PROCESS OF TEACHING MEDICAL LATIN.

24. жери Контакттыктык, Ж. Кызыл-Кыя шаарынын участкалык шайлоо комиссияларынын сапаттык курамы. *Восток*, 14, 1.

25. Беляева, Н. Л. (2021). ШКОЛЬНАЯ СЛУЖБА ПРИМИРЕНИЯ КАК СОВРЕМЕННАЯ ФОРМА ПРОФИЛАКТИКИ. In *БЕЗОПАСНОЕ ДЕТСТВО КАК ПРАВОВОЙ И СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ КОНЦЕПТ* (pp. 27-30).